

TURLKIY XALQLAR TILSHUNOSLIGIDA MATBUOT TILINING
O'RGANILISHI

Aminova Nafisa Istamovna

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti Doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada publitsistik uslubning eng qadimgi davrlardan buyon yetib kelgan namunalari o'rganilishi, rivojlanishi, tarixiy taraqqiyoti tahlil etilgan. Publitsistik uslubning eng qadimgi namunalari O'rta Osiyoning qadimgi yozma yodgorliklari bilan bog'liq. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi publitsistik uslubning ayrim janrlari shakllanganidan dalolat beradi. Turkiy xalqlar tilshunosligida ham matbuot tilini o'rganishda salmoqli ishlar bajarilgan.

Kalit so'zlar: *publitsistik ocherklar, yozma yodgorliklar, gazetachilik, matbuot tili.*

Nazarimizda, har qanday mamlakatda publitsistika tarixi davlatchilik tarixi bilan bog'liq. O'zbek davlatchiligi tarixi qadim zamonlarga borib taqalishini inobatga olsak, milliy publitsistikamiz tarixi ham shu qadar uzoq davrlarga borib taqaladi. Shu boisdan, uning ildizlarini qadim-qadim zamonlardan axtarish to'g'ri bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Jurnalistika tarixi bilan shug'ullangan taniqli olima, professor Nazira Abduazizovaning qayd etishicha, milliy publitsistikaning ana shu ildizlarini O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozma manbasi hisoblangan "Avesto"dan izlash kerak bo'ladi. Olimaning guvohlik berishicha, oltin laganlarga bitilgan hikmatli so'zlardan iborat qadimiy muqaddas kitob – "Avesto"ni keyinchalik saroy ulamolari topshirig'i bilan 12 mingta buqa terisiga oltin bilan yozib chiqishgan. Kitobning bugungi kunda ma'lum bo'lgan eng so'nggi nusxasi Kopengagenda saqlanmoqda [3; 368]

Shuningdek, eng qadimgi yozma manbalardan biri bo'lgan O'rxun-Enasoy yodgorliklarida ham murojaatlar, maktublar shaklidagi publitsistik ma'lumotlar uchraydiki, ularni ham publitsistik uslub vujudga kelishining ilk namunalari sifatida baholash mumkin.

Alisher Navoiy publitsist. Ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois», «Munshaot», «Mahbub ul-qulub» singari asarlarida keltirilgan Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Mahmud, Sayid Hasan Ardasher va boshqalar haqidagi adabiy portretlarini publitsistik ocherklar, deb atash mumkin. Bu esa o'rta asrlarda o'zbek tili publitsistik uslubining ayrim janrlari shakllana boshlaganidan dalolat beradi. N.Ochilovning fikricha, Navoiy nasriy asarlarini chuqurroq tadqiq etish uni o'zbek badiiy-publitsistikasining asoschisi, deb atashga imkon beradi [8; 195]

Ochil Tog'ayev Navoiy haqida. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari prof. Ochil Tog'ayevning "O'zbek badiiy publitsistikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasida publitsistik

asar sifatida tahlil qilingan, shuningdek, maqola janrining Sharq klassik adabiyotiga xosligi, uning xususiyatlari ochib berilgan.

Olimning fikricha, Nizomiy Aruziy va Navoiyning ilmiy, falsafiy va adabiy portretlari, Husayn Boyqaro maktublari o'zining fikr yaxlitligi, izchilligi va mantiqiy mulohazalari, obrazli ifoda vositalariga ko'ra zamonaviy maqolaning, xususan, yozuvchi maqolasining ayrim xususiyatlariga hamohangdir. Navoiy badiiy publitsistikaning ifoda vositalaridan ustalik bilan foydalanib, nafaqat g'oyaviy-mavzuiy izchillikka, balki ma'lum bir o'ziga xoslikka ham erishadi. Navoiy adabiy portretlarida atoqli shaxslar hayotidagi fakt va voqealar teran, ibratli umumlashmalarga asos bo'lib xizmat qiladi. [12; 125]

Turkistonda gazetachilik. Turkiston o'lkasida yangi shakldagi matbuotning paydo bo'lishi Rossiyaning mustamlakachilik siyosati bilan bog'liq tarzda kechdi. 1870 yilda Toshkentda Turkiston general gubernatorligining "Turkiston xabarlari" gazetasi, uning davomida 1870 yilning 28 aprel kunidan e'tiboran "Turkiston viloyatining gazetasi" chiqa boshlagan. Manbalarda keltirilishicha, bu nashrdan maqsad quyidagicha edi: "Turkiston g'eneral gubernato'ri buyrug'i bo'yincha ushbu oydan boshlanib "Turkiston gazetasi" chiqadur. Ushbu gazitlarda barcha xaloyiqg'a ma'lum bo'lmoq uchun g'eneral gubernatorni har turli farmoni izhor qilinur va yana turli yangi xabarlar, savdo to'g'risida yozilur. Va yana Toshkent va g'ayri shaharlarda bo'lg'on hodisa-voqealar yozilur. Ushbu gazet o'rischadan boshqa sartcha va g'ayri qazoqlarga keraklik qazoqcha bo'lub yozilur..." [11; 11] Bu gazetalar O'rta Osiyodagi birinchi davriy nashrlar bo'lib, 1917-yilgacha nashr etilgan.

Shu tariqa turli yillarda "Taraqqiy", "Osiyo", "Xurshid", "Shuhrat", "Hurriyat", "Sadoiy Turkiston", "Sadoiy Farg'ona", "Samarqand", "Oyina" kabil gazetalar faolyati yo'lga qo'yilgan. 1902 yilda "Lomiya", 1909 yilda "Is'hoqxon" kabi toshbosma ustaxonalar ochilib, ilk kitoblar nashr etila boshlangan.

Bu gazetalarda o'zbek xalqining ma'rifatparvar vakillari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Zokirjon Furqat, Hamza, Sadridin Ayniy, Sattorxon, Abdulla Avloniy, Saidrizo Alizoda, Akobir Shomansurov, Sadridin Ayniy, Ziyosaid kabi vatanparvarlar millat va uning haq-huquqi, tarixi, tili va adabiyoti masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqola va bahslar berib borishgan.

Ayniqsa, Mahmudxo'ja Behbudiy matbuotimiz tarixida maqolanavis sifatida alohida mavqega ega bo'lgan va uning aniqlangan maqolalari soni 300 ga yetadi.[13; 9] Bu davrga kelib o'lkada yuzdan ortiq o'zbekcha va ruscha gazetalar chiqa boshlagan edi. Ularning ko'pchiligi Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Andijon, Buxoro va Farg'ona tarixida munosib iz qoldirgan.

Turkiy tilshunoslikda matbuot tili tadqiqi. Turkiy xalqlar tilshunosligida vaqtli matbuot tilini o'rganish, gazetalar matniga lingvistik material sifatida yondashish 1950-yillardan boshlangan, deyish mumkin.

Qozoq tilshunosligida N.B.Karasheva qozoq tilida chop etiladigan "Aykap" jurnal tilining morfologik va sintaktik xususiyatlarini o'rgangan. B. Abilqosimov 1888-yildan 1902-yilgacha mavjud bo'lgan "Dala Ualayati" qozoq gazetasi tilini tahlil etgan. Shuningdek,

tilshunos S.Isayev qozoq tilida nashr etilgan "Enbekshi Qozoq" gazetasi va "Qizil Qozog'iston" jurnallari tilini tadqiq etib, adabiy til, so'zlashuv tili va bosma til elementlarini tahlil etgan, gazeta lug'atini o'rgangan. S.M.Isayev ushbu mavzu bo'yicha doktorlik dissertatsiyasida qozoq adabiy tili va kundalik bosma tili o'rtasidagi munosabatni, shuningdek, bosma sahifalarda so'z yasash usullarining rivojlanishini tahlil qilgan. A.Axabayevning ilmiy ishlarida qozoq kundalik bosma tili sintaktik nuqtai nazardan tahlil qilingan.[2; 9]

Tatar tilshunosligida A.T.Eshmuratov "Ural" gazetasi misolida tatar tilidagi sinonimik va frazeologik birliklarning leksik tuzilishi va stilistik xususiyatlarini tadqiq etgan. V.Z.Garifullinning dissertatsiyasida tatar tilidagi gazeta matnlarining lingvostilistik xususiyatlari va kommunikativ vazifalari tahlil qilingan. M.A.Asqarovning nomzodlik dissertatsiyasida esa XX asr boshlarida tatar tili jurnalistikasining rivojlanishida "Qozon-maxbide" ("Qozon byulleteni") gazetasining roli o'rganilgan.

Qoraqalpoq tilshunosligida M.K. Ayimbetov "Qoraqalpoq publitsistik matni leksikasi va morfologiyasini lingvostilistik tahlil qilish tajribasi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan va shu nom ostida monografiya nashr ettirgan. [1; 128] Qoraqalpoq yozma adabiy tilining funktsional uslublari bo'yicha ham maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. T.J.Masharipovanning "Jurnalistika nazariyasining yaxlit kontseptsiyasi: qoraqalpoq publitsistikasi materiallari bo'yicha ilmiy-metodologik tahlil" nomli monografiyasi nashr etilgan. Kitobda ommaviy axborot vositalari janrlarining tili va uslubi haqida ma'lumot berilgan. Davriy matbuot qoraqalpoq tili lug'at boyligining rivojlanishiga, morfologik o'zgarishlariga va boshqa tillardan so'zlar va atamalarning o'zlashtirilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatganligi yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Айымбетов М. Опыт лингво-стилистического анализа лексики и морфологии каракалпакского публицистического текста. – Нукус: "Билим", 1991. -128 с.
2. Ахабаев А. Статистический анализ лексико-морфологической структуры казахской публицистики: Автореф. ...канд.филол.наук. – Алма-Ата, 1971.
3. Абдуазизова Н. История национальной журналистики (генезис и эволюция), в 2-х томах, том 1. –Ташкент: «Sharq» НМАК, 2012, – 368 бет.
4. Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари: Филол.фан.д-ри дисс.автореф. – Тошкент, 2005.
5. Аҳмедова Д.Р. Публицистик матнлар услуби. – Тошкент, 2020.
6. Дускаева Л.Р. Медиалингвистика в России: становление структуры и векторы развития. Вестн. Моск. ун-та. Сер.10. Журналистика, 2018, № 6. Язык СМИ, -С.53 (юкланган хужжатда 6-бет).
7. Дускаева Л.Р. Медиалингвистика в России: становление структуры и векторы развития. Вестн. Моск. ун-та. Сер.10. Журналистика, 2018, № 6. Язык СМИ.

8. Очилов Н. Публицистика. Ўзбек миллий энциклопедияси, 7-том, 195-б.
9. Тагаев А. Узбекская художественная публицистика: Автореф.дис... д-ра филол.наук. – Ташкент, 1973, -С.9.
10. Эшмуратов А.Г. Некоторые языковые и стилистические особенности газеты «Урал». АКД. –Казань, 1959; Гарифуллин В.З. Лингвостилистическая система татарского газетного текста: Автореф. ...канд.филол.наук. – Москва, 1998; Аскаров М.А. Газета “Казан-мохбире” (“Казанский вестник”) и её роль в развитии татарской публицистики начало XX века: Автореф. ...канд.филол.наук. – Казань, 2004.
11. Qosimov B. va boshqalar. Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti. – Toshkent, Maʼnaviyat, 2004. - B.11.
12. <https://adabiyot.islamonline.uz/uzbek/adabiyot-tarixi/125-enasoy.pdf>
13. “Zarafshon” мухаллафлари. “Zarafshon” газетасининг 110 йиллигига бағишланади”. – Тошкент: “Sahhof”, 2023, -Б.9.